

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TURLI XIL MUSIQA FAOLIYATLARIGA O'RGATISH YO'LLARI

Radjabova Gulbaxor,

maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi, Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti

Bola va uning qobiliyatlarining o'sishi katta kishi tomonidan uyushtiriladigan faoliyatda: qo'shiq, ritmika, muzika tinglash va muzika asboblari chalishda sodir bo'ladi. Bolalar o'zlarining musiqa eshitish tajribalari asosida o'z tasavvurlarini qo'shiq, o'yin, raqs ijodida namoyon qilishga va musiqa savodining oddiy elementlarini egallashga qodirdir. Shu bilan birga faoliyatining har bir turi umuman musiqa qobiliyatlarining o'sishiga, maxsus qobiliyatlarning shakllanishiga, masalan: ashula aytish, ashulachilik ovozi va kuy qobiliyatining tarkib topishiga yordam beradi.

Bularning barchasi turli tashkiliy formalarda: mashg'ulotlarda, o'qishdan tashqari ishlarda (bolalar bog'chasi turmushida musiqa) va mustaqil faoliyatlari bo'lib o'tadi.

Barcha bolalar bilan bir vaqtda va musiqa praktikasining barcha turlari bo'yicha rejali olib boriladigan mashg'ulotlar ishning eng muhim formasi hisoblanadi. Pedagog o'z ishini rejalashtirar ekan, bolalar bilan bo'ladigan har bir uchrashuvning aniq vazifalari unga ravshan bo'lishi kerak, o'quv materiallarini butun o'quv davriga taqsimlaydi. U butun jamoaga murojaat mashg'ulotini dinamik, variantlab olib borishga, bolalar e'tiborini ustalik bilan boshqa tomonga burishga, unga ijro etilayotgan musiqa xarakterini to'g'ri idrok etishga yo'llashga majbur qiladi. Shu bilan birga mashg'ulot yagona reja bilan birikkan bo'lishi kerak.

Amaliyot jarayonida mashg'ulotlar o'tkazishning quyidagi tartibi shakllangan. U bolalarni tinglash qobiliyatini, e'tiborini to'plab jamoani yaxshi uyushtiradigan musiqali – ritmik mashg'ulotlardan boshlanadi. Shundan keyin bolalar sokin, e'tiborini chetga qochirmay o'tirib, ashula aytadilar va musiqa tinglaydilar. Ular o'zlarini, o'rtoqlarini, pedagogning ko'rsatmalarini tinglab, ashula aytish improvizatsiyalari uchun ijodiy topshiriqlarni bajaradilar, o'zlariga yaxshi tanish bo'lgan kuy va qo'shiqlarni takrorlaydilar, yangi qo'shiqlar o'rganadilar. Mashg'ulot oxiriga yaqinlashganda tinch xarakter bilan yakunlanadigan o'yin, raqs, jamoalari bilan kuylash mashg'ulotlari o'tkaziladi.

Musiqali-estetik tarbiya bir qator muhim vazifalarni amalga oshiradi va shu bilan birga bola hissiyatini va fikrlarini takomillashtiradi.

Bolalar tinglaydigan yoki ijro etadigan musiqa asarlari o'z xarakteri, janri, takror bayon qilish usullariga ko'ra har xildir va ular o'rtasidagi aloqa o'xshashligi va farqi, muvofiq va zidligiga ko'ra o'rganiladi.

Musiqa asarlari pedagogik maqsadlarda tanlanar ekan, quyidagilarga: musiqa, qo'shiqlar, tekstlar xarakterida va rejali cholg'u kuy va qo'shiqlarning normalarida ochib beriladigan emotsional-obrazli mazmunga, mavzuga yo'nalganlikka;

- janrga-lirik vazmin, qahramona tantanali, hazil – quvnoq;
- strukturasi - ayrim qismlar, iboralar muqqadima, xotima.
- ifodali vositalariga - yuqori laddan eshitishga, registr
- dinamik templi - ritmik tembrga e'tibor berish lozim.

Shunday qilib, bolalar musiqa asarlarini umumlashgan holda idrok etish usullarini aynglaydilar va o'zlashtirib oladilar.

Bola shaxsining har tomonlama kamol topishi estetik tarbiyaning axloqiy aqliy va jismoniy tarbiyaning uzviy aloqasi tufayli ro'yobga chiqariladi. G'oyaviy – axloqiy ta'sirini amalga oshirilishiga to'g'ri ishlab chiqilgan va bolalarning yosh imkoniyatlariga muvofiq tanlangan repertuar yordam beradi. Biroq eng asosiysi - musiqaning o'ziga xos xususiyati tufayli shakllanadigan "Xissiyotlar maktabi" bo'lib tinglovchida birgalikda xis qilish tuyg'usini uyg'otishdir.

Musiqa mashg'ulotlarida bilish va aqliy faoliyatlar xam aktivlashadi. Bolalar musiqani diqqat berib tinglar ekanlar ko'p narsalarni bilib oladilar. Biroq, bunda ular musiqaning eng umumiy xususiyatlari eng yorqin obrazlarinigina idrok etadilar. Agar bolaning oldiga musiqani e'tibor berib tinglash, uning ifoda vositalarini farqlash, qiyoslash, ajratish vazifalari qo'yilgan bo'lsa emotsional munosabat o'z ahamiyatini yuqotmaydi. Bu aqliy xarakterli bola xissiyoti va kechinmalari doirasini boyitadi hamda kengaytiradi, ularga onglikni tarkib toptiradi.

Musiqali estetik tarbiyaning garmonikligiga musiqa faoliyatining maktabgacha yoshdagi bolalarga tushunarli bo'lgan barcha turlaridan, o'sib kelayotgan insonning barcha imkoniyatlaridan foydalanilgan taqdirdagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Shu bilan birga pedagogikning vazifalari murakkablashtirilgan ekan, bolalarning o'zlariga xos ta'sirchanliklarini suiste'mol qilmaslik lozim. Musiqa

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

san'ati, uning o'ziga xos xususiyatlari pedagogning oldiga bir qator spetsifik vazifalarni hal qilishni ko'ndalang qilib qo'yadi:

- musiqaga muhabbat va qiziqishni tarbiyalash. Faqat emotsional ta'sirchanlikni va moyillikni o'stirishgina musiqaning tarbiyaviy ta'sirida keng foydalanish imkonini beradi;

- bolalarni muayyan uyushtirilgan sistema yordamida turli xildagi musiqa asarlari hamda unda foydalaniladigan ifoda vositalari bilan tanishtirib, ularning taassurotларini boyitish;

- bolalarda musiqa hamda ashula aytish, ritmika, bolalar musiqa asboblari chalish sohasida eng oddiy ijrochilik malakalarini shakllantirib, ularni musiqa faoliyatini xilma - hil turlarida qatnashtirish. Ularni musiqa savodining elementlari bilan tanishtirish. Bularning barchasi bolalarga ongli, bevosita, ifodali harakat qilish imkonini beradi;

- bolalarga umumiy musiqa qobiliyatini (sensor yuqori ladda eshitish, ritmni his qilish qobiliyatlarini) o'stirish, xonandalik ovozi va harakatlarning ifodalaligini tarkib toptirish. Agar mazkur yoshda bolani aktiv amaliy faoliyatga o'rgatilsa va qatnashtirilsa uning barcha qobiliyatlari shakllanadi va o'sadi;

- bolaning musiqa didini kamol topishiga yordam berish . Musiqa haqida olingan ta'sir va tasavvurlar asosida avvalo ijro etilayotgan asarlarga nisbatan tanlash, so'ngra esa baxolash munosabatlari namoyon bo'ladi;

- bolalarda musiqaga, eng avvalo - ularning bunday faoliyatlari uchun qulay bo'lgan musiqa o'yinlari va xorovodlarga obrazlarni ifodalash tanish raqs xarakterlarida yangi birikmalar qo'llash, xirgoyi qilish kabi faoliyatlarga ijodiy munosabatni o'stirish. Bu kundalik xayotda o'rganilgan repertuardan foydalanish, musiqa asboblari chalish, ashula aytish, raqsqa tushishlarni qo'llashdagi mustaqillikni tashabbus, ishtiyoqni aniqlash imkonini beradi. Albatta yuqoridagilarning namoyon bo'lish ko'proq o'rta va katta maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar uchun muxim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Бердиева, Ханифа Мейлиевна Изучение научных основ механизации и автоматизации управления сельским хозяйством в курсе физики средней школы (на материале сельских школ Узбекистана). <https://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-02/dissertatsiya-izuchenie-nauchnyh-osnov-mehanizatsii-i-avtomatizatsii-upravleniya-selskim-hozyaystvom-v-kurse-fiziki-sredney-shkoly-na-m>

2. Бердиева Х.М., Шаманов М.Х., Абдурахмонова Р.Х., Гулбоева Б.Н. Технология и методика обучения учащихся общеобразовательных школ // Студенческий вестник: электрон. научн. журн. 2018. № 29(49). URL: <https://internauka.org/journal/stud/herald/49> (дата обращения: 10.03.2022).

3. Бердиева Х.М. Развитие профессиональных коммуникативных навыков педагогов в сфере образования. <https://s.siteapi.org/d955411c180ee78/docs/khhp4bee6u8g8goowcsg0gcg8os0kw>

4. Berdiyeva Muhabbat Meyliyevna Pedagogical support and development of the intellectual opportunities of children in preschool education <http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2019/12/abstract-pedagogical-support-and-development-of-the-intellectual-opportunities-of-children.pdf>

5. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat. The quality of preschool education at the present stage. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year : 2021, Volume : 11, Issue : 10. [10.5958/2249-7137.2021.02402.2](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001)
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001>

6. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat Tasks for preschool educators. [10.5958/2249-877X.2021.00078.3.](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023)
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023>

7. Berdiyeva M.M. Formation of intellectual culture of a preschooler. <https://scientific-conference.com/images/PDF/2019/55/International-scientific-review-LIV-ISBN.pdf>

8. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Мактаб ўқувчиларини касб-хунарга ўргатиш йўллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9626%20%282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>

9. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Таълим тизимини модернизациялашдаги муаммолар ва уларни бартараф этиш усуллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9626%20%282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

10. Бердиева Мухабат Мейлиевна. Педагогик кўллаб-қувватлаш асосида илк ёшдаги болаларни интеллектуал ривожлантириш. “Профессионал таълим тизимида ислохотлар: малака ошириш таълим турида инновацион ғоялар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. <https://staff.tiame.uz/storage/users/546/articles/iMJfaUDoPOYZqSxUhG7olj9aZ9XSLff9CSErkMxL.pdf>

11. Usmanova Saodat Erkinovna. (2021). Formation of spiritual and moral qualities of preschoolers on the basis of public education. *Middle European Scientific Bulletin*, 11. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.421>

12. Усманова Саодат Эркиновна. Возможности Использования Мультимедийных Компьютерных Программ В Развитии Детей Дошкольного Возраста. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=46438589>

13. Jumayeva malika aliyevna, & buriyev jamshid jumanazarovich. (2021). The role of activity in the upbringing and development of the child . *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(2), 126–129. Retrieved from <https://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/40>

14. Jumayeva Malika Aliyevna. (2021). Independent musical activity in preschool organizations. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 1(1), 9–10. Retrieved from <https://openaccessjournals.eu/index.php/jedic/article/view/16>

15. Aliyevna, J. M. (2021). The Social Activity of the Educator with the Family. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 12, 401-403. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/338>

16. Lola Utasheva Shoturaevna. (2021). Social and pedagogical activities in preschool educational institutions. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(11), 412–415. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/193>

17. Shoturayevna, U. L. (2021). Development of Creative Competence of Educators in Preschool Educational Institutions. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 12, 395-397. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/336>

18. Radjabova G.M. The educational value of oral folk art for preschoolers // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

19. Berdieva M.M. Increasing the research activity of a pupil of a preschool organization // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

20. Berdieva Kh.M. Functions of the organization of advanced training of teachers in the field of education // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

21. Utasheva L.Sh. Introducing preschoolers to the world of fiction // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С. {см. сборник}.

22. Usmonova S.E. Plot construction as a means of developing the creative abilities of children // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

23. Muhammadiyeva F.T. Technology familiarization of preschoolers with various materials through cognitive research activities // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

24. Mamatmuminova M.G. Features of the use of animation in the development of creative abilities of preschoolers // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.